https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 60 | 2025

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING KASBGA YO`NALTIRISH FAOLIYATINING MUAMMO VA YECHIMLARI

Toshbayeva Madina Ravshan qizi
TerDU Amaliy psixologiya yo`nalishi talabasi

Kayumova Go`zal Narzullayevna
TerDU Psixologiya kafedrasi o`qituvchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so`zlar: Oila, ota-ona, o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyati, kommunikatsiya va tarbiya.

Annotatsiya

Ushbu maqola amaliyotchi psixologlarni ta`lim jarayonida o`quvchi yoshlarni kasbga yo`naltirish,kasb tanlash masalalari, shungdek, o`quvchilarni kasbga yo`naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish xususiyatlari bayon qilingan.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2025 LWAB.

Kasb odatda shaxsning tirikchilik manbai desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Erkaklar va ayollar uchun ham alohida kasb ko‘rinishlari bor.Masalan kasblar soni juda ko‘p haydovchi,shifokor, o‘qituvchi, usta, tikuvchi,to‘qimachilik, tadbirkor, stomatolog, haykaltarosh, muhandis, huquqshunos, marketolog, seleksioner, arxeolog, oshpaz, rassom, ayollar va erkaklar sartaroshi, mutaxassis, psixolog,tilshunos ,dizayner va boshqalar. Bulardan birini tanlash har bir insonning qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi, shunday ekan ertami, kechmi har qanday insonni kelajakda qaysi qasbni egallasam ekan?, degan savol qiynaydi. Bu masala nafaqat maktab o‘quvchilari va endi oliy o‘quv yurtiga kirgan yoshlar uchun ham balki malum sabablarga ko‘ra nufuzliroq, ko‘proq haq to‘lanadigan ish topishni istagan katta yoshdagi kishilar uchun ham dolzarb muammoga aylanib bo‘ldi. Bunga esa sabab, zamona sayil shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda yashayapmiz.Bugun bizni eng so‘nggi texnologiya ham hayratga so‘lishi qiyin.Nima uchun deysizmi ? bunga hech ikkilanmasdan shunday javob berishimiz mumkin, olamda har qanday o‘zagarish bo‘lyaptiki!, hayron qolishga ulgurolmaymiz. Kasbga yo‘naltirish ishiga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy - amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Kasb tanlashda har bir shaxsning individual xususiyatlari, xalq xo‘jaligi manfaatlari nazaridan mehnat resurslarini to‘laqonli ta’minlash zarurati kabi omillar hisobga olinmog‘i lozim.

Respublikamizda bosqichma - bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda kasb – hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalarni ta’lim islohatlari bosh maqsadidan kelib chiqqan holda yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo‘naltirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda ko’pchilik o’quvchilar kelajakdagi kasbini daromadiga qarab tanlamoqda. Tanlagan kasbining oyligi juda katta ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

Amaliyotchi psixolog bu yerda o'quvchi bilan ota-ona o'rtasidagi fikr- mulohazalarni o'rganib,konsultant olib borishi kerak deb o'yliyman.Bu yerda faqat farzand qiyinchiliklar ko'radi. Shu sababli hayot yo'lida ko'p qoqiladi, o'z yo'lini topa olmaydi.Oilada ota-onaning fikrlari bir-biri bilan hamnafas bo'lishi farzand uchun juda katta mativatsiya bo'ladi. Ayrim o'quvchilar ayni bitirayotgan chog'ida kasbga yo'naltirishida maktabning amaliyotchi psixologi hissasi ham ahamiyatga ega.Ammo ushbu vaziyatda ota-onasi boshqa- boshqa kasbni egallashi kerak ekanligini xohlashini aytadi va farzand o'rtada qiynalib qoladi,boshi qotadi.Bir tomonda o'zining qiziqishi , boshqa tomonda ota-onasinig orzusi.

Amaliyotchi psixolog, avvalambor, maktab o'quvchilarning kasbga qiziqishini o'zidan va ota-onasidan so'rab bilishi kerak. Amaliyotchi psixologning kasbga yo'naltirish faoliyatini ota-ona bilan hamkorlikda olib borishi lozim.Kasbga yo'nalganligini bilish uchun o'quvchilardan kasbga doir metodikalarni olsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Masalan,ushbu metodika bo'yicha o'quvchi o'qituvchilik kasbiga yo'nalishi ustunlik qilsa, lekin o'quvchining ichki motivi, qiziqishlari va qobiliyati banker kasbiga yo'nalgan.Afsuski,o'quvchilarning ota- onasiga yuqoridagi kasblar qiziq emas.Ular farzandini shifokor bo'lishini yoshligidan xohlagan.Vaholangki, o'sha ota-onaning farzandi Med institutda o'qisa ham ,afsuski, kelajakda boshqa kasbga yoki hunarga o'tishi hech gap emas.

Maslahat berishda amaliyotchi psixologlar tayyorgarlik va moslashish tushunchalarini tushuntirishdan boshlashlari mumkin,yo'l-yo'riq va kelajakka bo'lgan g'amxo'rlikning ahamiyatini va ularning martaba rejalashtirish bilan bog'liqligini ko'rsatishi „Tahminat'' kichik o'lchovlari mazmuniga e'tibor berishlari,talabalar bilan shu kabi mavzularni muhokama qilishlari mumkin.

Amaliyotchi psixologlar uch bosqichli jarayonni ishlab chiqishni taklif qilishadi,bu esa shaxslarga yo'naltirilmagan izlanish,direktiv modellashtirish va faol o'rganish imkonini beradi. Birinchi bosqichda psixologlar direktiv bo'lmagan uslubdan foydalanishlari mumkin va o'z mijozini kutilganiga teskari yo'nalishda javob berilganbir yoki bir nechta narsalarni aniqlashda qo'llab-quvvatlashi va ular bilan ularning javobiga nima asos bo'lganligi haqida fikr yuritishlari mumkin.Amaliyotchi psixologlar birinchi navbatda o'quvchilarga kasb nima ekanligi va qanaqa kasblar borligini aytishi kerak. Keyin o'sha kasblar bo'yicha ma'lumotlar beradi va o'quvchilarga tanlagan kasbi bo'yicha motivatsiya beradi

Kasb tanlashga oid trening namunalari

Taklif etilayotgan o'yinlar quyidagi sxema bo'yicha tavsiflanadi:

1. O'yindan ko'zda tutilgan maqsad, o'yinlar foydalanish imkoniyatlari;
2. O'yinni o'tkazish shartlari (o'yin qatnashchilari soni, bir o'yinni o'tkazish vaqti, tashkiliy jihatdan jihozlash);
3. O'yin tartibi (bosqichlari, shu jumladan tayyorgarlik bosqichining zaruriyati);
4. O'yinning borishi o'quvchilar bilan muhokama qilishni tashkil etishning na'munaviy sxemasi;
5. O'yinning diagnostik imkoniyatlari;
6. O'yin chog'ida vujudga keladigan tipik qiyinchiliklar;
7. O'yindan foydalanish va uni rivojlantirishning istiqbolli turlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi.–T.: O'qituvchi. 1986.
2. Mavlonova R. Mehnat 3- sinf oquvchilari uchun darslik. – T.:Mehnat 1993.
3. Mavlonova R. Mehnat 4-sinf oquvchilari uchun darslik. – T.: Mehnat.1995.
4. Nabijonova D. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002.38 b
5. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 97 b
6. G'oziev E.G`. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0